

## MAKTABDAN VA SINFDAN TASHQARI ISHLAR, TASVIRIY SAN'AT FANI TO'GARAKLARINI TASHKIL QILISH

Madaminjonova Muxlisa Mahmudjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy gumanitar va san’at fakulteti” “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishi 2-bosqich 202-guruh talabasi  
[rizayevaqomarun0@gmail.com](mailto:rizayevaqomarun0@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta’lim mакtab o’quvchilarida tasviriy san’at fan to’garaklarini tashkil etish, ularni bo’sh vaqtlarini unumli foydalantirish va o’zлari qiziqgan yo’nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so’zlar:** Tasviriy san’at, reflex, rangtasvir, naqqoshlik, o’ymakorlik, haykaltaroshlik, qalamtasvir, kulolchilik, yorug’-soya.

## ORGANIZATION OF SCHOOLS AND EXTRACURRICULAR ACTIVITIES, FINE ARTS SCIENCE CIRCLES

**Annotation:** This article describes recommendations for the organization of Fine Arts Science circles in secondary school students, the productive use of their free time and the improvement of their knowledge and skills in the direction in which they are interested.

**Keywords:** Fine Arts, reflex, painting, embroidery, carving, sculpture, pencil, pottery, light-shade.

## ШКОЛЬНАЯ И ВНЕКЛАССНАЯ РАБОТА, ОРГАНИЗАЦИЯ КРУЖКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация:** В данной статье изложены рекомендации по организации предметных кружков изобразительного искусства у учащихся общеобразовательных школ, эффективному использованию их досуга и повышению знаний и умений в интересующем их направлении.

**Ключевые слова:** Изобразительное искусство, рефлекс, живопись, тиснение, резьба, скульптура, карандаш, керамика, свет-тень.

Kelajagimiz poydevori bo’lgan yosh avlod bilim dargohlarida tarbiyalanadi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday ta’lim va tarbiya olgan yosh avlodga bog’liq. Umumiyo’rta ta’lim maktabi o’quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o’quvchilarning bo’sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o’quvchilarning barkamol va yetuk shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Hozirda ta’lim muassasalarida dars o’tishning turli yangi loyihalari orqali tajriba sifatida nazariy amaliy dars tashkil qilish usullari qo’llanilmoqda. Tasviriy san’atda olib borilayotgan ishlarning hajmi va turlari ham niroyatda xilma xilligi bilan boshqa fanlardan ko’ra qo’shimcha oddiy va murakkab jarayonlarni rassom pedagogdan talab qilib turishi bilan farqlanadi. O’quvchilarning tasviriy san’at darslariga bo’lgan qiziqishni orttirishda, yomon va salbiy o’zlashtiruvchilarni yaxshi va ijobjiy fikrlash va o’zlashtirishga aylantirish kerak. Chunki har bir o’quvchining o’zida qiziqishlari, ishtiyoqi va iqtidori bo’ladi. Buni esa o’qituvchi

ko'ra bilishi va uni yuzaga chiqarishi darkor. Masalan sinfga kirgan o'qituvchi faqat faol va intiluvchi bolalar bilan shug'ullanadi, bu esa 45 minut dars faqat osha o'quvchilar bilan o'tib ketadi. Imkoni boricha barcha o'quvchilar bilan individual tarzda shug'ullanishi va darsda o'zlashtirishi qiyin bo'lган bolalar bilan ko'proq muloqot qilishi kerak. Ya'ni darsdan tashqari to'garaklar tashkil qilib o'quvchilarni fanga bo'lган qiziqishlarini ortirish va shakllantirish yo'li bilan ko'zlangan maqsadga erishiladi. Tasviriy san'at darslarida esa o'qituvchi o'zini fani bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishi kerak. Chunki o'quvchilarni bu fanni o'tishda ko'rgazmali qurollardan foydalanilgan holda va tarqatma materiallardan foydalanib o'tilsa maqsadga muofiq bo'ladi. Buyuk rassomlarni hayoti va ular chizgan buyuk asarlarni ko'rsatgan holda oq'uvchilarga tushuntirilib borishi kerak. Ular shu darajaga yetkuncha qanchadan qancha sinov va mashaqqatlarni boshdan kechirganligi ,ular ham bu ishni boshlashda birinchi hech qanday narsa qo'llidan kelmaganligini tushuntirib berib bolalarni umidlarini so'ndirmaslik kerak. Chunki ayrim o'quvchilarda men buni qila olmayman yoki bilmayman degan tushunchani yo'q qilishi kerak. Har bitta o'quvchilarni ichida yashiringan bir iste'dodi bo'ladi, oshani yuzaga chiqarishi kerak. Darsdan so'ng to'garaklarga qatnashgan holda ushbu fanni yanada chuqurroq egallashi zarur.

Tasviriy san'at bo'yicha tashkil etiladigan to'garaklarning maqsadi, o'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish, ularga tasviriy san'atning biron turi bo'yicha kengroq bilim va malakalarini berish, berilgan bilim bo'yicha turmushda, hayotda qo'llay olishga o'rgatish va kasb tanlashga yordam berishdan iborat. To'garakka qabul qilish ixtiyoriy bo'lib, unda o'quvchilarning qiziqishiga qarab, rangtasvir, naqqoshlik, o'ymakorlik, haykaltaroshlik, badiiy kulolchilik va loy yoki plastilin bilan ishslash asarlarini o'rganish kiradi. To'garaklar sinflar bo'yicha guruhlarga bo'linadi. Masalan 1-sinflar bilan 2-va 3-sinflar birgalikda, 4-sinfdan 7-sinfgacha bo'lганlar bir guruh va 8-sinf bilan 9-sinflar alohida guruhlarga bo'linadilar. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar bilan yuqori sinfdagilar o'zlashtirish qobiliyati va tushuninishi bir biridan farq qiladi. Shuning uchun ularni alohida guruhlarga bo'lган qilgan holda to'garaklar tashkil qilinadi.

To'garaklar uchun ish rejasi tuzulib, shu reja asosida haftada 1 marta yoki 2 marta mashg'ulot o'tkaziladi. Buning uchun to'garak tashkil qilingan xona ushbu tasviriy san'at faniga mos bo'lishi kerak, Chunki qalamtasvir, rangtasvir ishslashda naturaga qarab ishlanishi va unga kerakli chiroq, maxsus matolar, ro'zg'orda ishlatiladigon turli xil buyumlar kerak. O'qituvchi naturaga qarab undagi yorug' soya va reflexlarni ko'rsatgan holda o'quvchilarga tushuntiradi. To'garak yakunida esa o'quvchilarga uyga topshiriqlar beriladi. Uyga vazifani bajarish yo'llari bosqichlar asosida ko'rsatib, tushuntirib beriladi. O'zini o'tgan mavzusi bo'yicha uy rozg'or buyumlaridan qalamda yoki rangda ishlab kelish topshirig'i beriladi. Mustaqil ishda asosiy e'tibor bo'yoq bilan ishslashga naturalarning real tasvirlanishiga va yorug'-soyalarning to'g'ri berilganligiga va naturani to'g'ri joylashtirganligiga e'tibor qaratiladi.

Xulosa o'mida shuni aytish mumkinki, umumta'lim maktab o'qituvchilari quyidagi darsdan tashqari to'garaklarni tashkil qilinsa deyarli barcha o'quvchilar faol va darsga bor diqqati bilan o'tirishadi, chunki har bir o'quvchining ichidagi yonib turgan bir yashirin istedodi bo'ladi. Bu o'quvchidagi istedodni esa faqat muallimlargina yuzaga chiqarib shakllantira oladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Turg'unboyev K., Rizayev A. «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar». Andijon
2. I.Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbanova "Tasviriy san'at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" O'quv uslubiy qo'llanma.
3. Nabiev M., Azimova B. «Rasm chizishga o'rgatish metodikasi». T.: O'qituvchi,
4. Xasanov R. «Tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasi» Fan dasturi.
5. 2008.1976.
6. Barchinoy, K. (2019). Problems of Improving Artistic Perception of Future Art Teachers. Cross-Cultural Communication, 15(4), 79-82.
7. Qurbanova, B. (2021). The history of visual art and it's importance in people life. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 1558-1561.
8. Kakharovna, A. M., Tadjimatovich, Y. M., Rakhmatovich, S. O., & Mirzahamdamovna, Q. B. (2021). Modern Approaches to the Teaching of Fine Arts. Solid State Technology, 64(2), 4250-4254.